
DEPUTAT QABULI



Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi kotibiyati tomonidan 2021 yilga mo'ljallangan reja jadvalga muvofiq, Deputatlarni saylangan hududidagi saylovchilari bilan uchrashuvlar, ochiq muloqotlar hamda qabullar o'tkazishi belgilangan. Ushbu rejaga ko'ra Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashi deputati, A.Abdumalikov G'ishtmon madaniyat markazida sayyor qabul o'tkazdi.



Sayyor qabul davomida 9 nafar fuqarolar tomonidan bandlik, bank, suyultirilgan gaz balon olish va boshqa masalalar bo'yicha murojaatlar qilindi. Ularning har biri alohida nazoratga olinib, mutasaddi idoralarga deputatlik so'rovlari yuborildi.

Jumladan, fuqaro S.Xaydarovning imtiyozli kredit olish yuzasidan deputatga qilgan murojaati natijasida tumandagi tijorat bankiga deputat so'rovi chiqarildi. Shuningdek, boshqa masalalar bo'yicha qilingan murojaatlar ham deputatning e'tiboridan chetda qolmadi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-05-07 21:29:46